



KORRUPSIYA NIMA VA TIBBIYOTDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH

¹Kurbonova Feruza Irgashevna

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Jizzax filiali
Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari,

²Xoliqov Qiryigit Umirzoqovich

Ilmiy rahbar-Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi
Jizzax filiali o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7450221>

ARTICLE INFO

Received: 06th December 2022

Accepted: 15th December 2022

Online: 16th December 2022

KEY WORDS

Korrupsiya, "mansabdor shaxs",
"mas'ul mansabdor shaxs",
ijtimoiy xavf, illat, konvensiya,
ma'muriy va fuqarolik
qonunlari.

ABSTRACT

Ushbu maqola, korrupsiyaga sabab bo'layotgan holatlarni hamda jamiyatni bu balodan qutqarish masalasi muhokamasini yo'lga qo'yish hamda bu haqda keng jamoatchilikni, xalqaro hamjamiyatni xabardor qilib borish dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, tibbiyotimizni yanada jadal yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakatimizda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liq. Bu maqsad yo'lida barchamiz birlashishimiz, bir yoqadan bosh chiqarishimiz, hamjihat va hamfikir bo'lishimiz, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatini nafaqat qo'llab-quvvatlashimiz, balki unda faol ishtirok etishimizni bugungi davrning o'zi taqazo etayotganini unutmasligimiz shart va zarur.

Dolzarbliqi: Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga

kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkor.

Maqsad: Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tizimdagi tibbiyot muassasalaridagi vaziyatni nazorat qilib borish, korrupsiyaning oldini olish, ta'magirlik holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida aniq vazifalar belgilab berish. Har bir tibbiyot xodimi sohada korrupsiyaga yo'l qo'yilmasligi uchun tibbiy xizmatning sifatli ta'minlanishiga e'tibor berishi lozim.

Hozirgi kunda korrupsiya haqida gapirar ekanmiz bu kunning eng muhim va



dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Korrupsiya deb ataluvchi ushbu illatga qarshi nafaqat bizning mamlakat balki dunyodagi barcha mamlakatlar kurashib kelmoqda. Shuningdek, respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq siyosat hamda izchil islohotlar natijasida o'zgarayotgan, yangilanayotgan, milliy tiklanish yo'lidan milliy yuksalish yo'liga o'tgan O'zbekistonning dunyodagi o'rni va mavqeyi tobora mustahkamlanib bormoqda.

Jamiyatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari so'zsiz ta'minlanib, milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, barcha sohalar va tarmoqlarda barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda, xalqning turmush darajasi yaxshilanib, davlatga hamda ertangi kunga bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda.

Albatta bu natijalarga o'z-o'zidan erishilmagan. Bunday ijobiy o'zgarishlarga birinchi navbatda muhtaram Prezidentimizning siyosiy irodasi va jasorati, har tomonlama puxta o'ylangan va xalq manfaatiga xizmat qiladigan harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarni hayotga izchil tatbiq etilishi hamda zahmatkash xalqimizning mashaqqatli mehnati tufayli erishilmoqda. Bugun korrupsiya balosi hammani birdek tashvishga solayotgan jiddiy muammolardan biriga aylangan. Shuning uchun dunyodagi barcha davlatlar, shu jumladan O'zbekiston ham ushbu illatning har qanday ko'rinishiga qarshi murosasiz kurashga kirishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi va Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifa va vakolatlari belgilab berildi.

Darhaqiqat, korrupsiya nima degan savol tug'ladi?

Korrupsiya-bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiyaga qarshi ma'rifat -insonda bilim, "immunitet", shuningdek korrupsiyaga qarshi oliy maqsadga mos keluvchi barqaror xulq-atvor me'yorlarida o'z aksini topgan tegishli ma'naviy-axloqiy ehtiyojlar, insof, iymon-e'tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining maqsadi - korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq tahdidlardan himoyalanihini ta'minlashdan iborat. Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan, qabul qilingan turli qonunlari, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati - bu davlatda korrupsiyaning oldini olish, u



paydo bo'lganda uni tugatish va cheklash borasidagi sa'y-harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuidir.

Endi korrupsiya, ya'ni poraxo'rlik, mansabdan foydalangan holda qonunni suiste'mol qilish, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik asosida davlat tashkilotlarida ish tashkil qilib, iste'dodli kadrlarning o'sishiga to'siq bo'lish, jismoniy hamda yuridik shaxslarning davlat tomonidan qonun bilan kafolatlangan holda berilgan huquqlarini buzish, o'z vazifasi bo'yicha belgilangan majburiyatlarini bajarishni paysalga solib, ta'magirlik qilish kabi holatlarda bunday qabihliklarni amalga oshirganlar uchun davlatning qat'iy jazosi muqarrarlari aniq-ravshan belgilandi.

«Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylilik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarlari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

-davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlari prinsipini ta'minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;
- davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik;
- davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro



munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

-tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik;

-davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkoralik, shaffoflikni ta'minlash hamda raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash;

-ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

So'nggi ikki yilda sog'liqni saqlash tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda, sohada korrupsiyaning oldini olish ham diqqat markazida bo'lmoqda.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan bu illatga qarshi faol sa'y-harakatlar, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Hududlarda esa bu borada aholining fikrini o'rganish maqsadida uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Ta'kidlash joizki, tibbiyot muassasalari, jumladan, tug'uruq komplekslarida ta'magirlik va korrupsiya holatlari chuqur o'rganilib, tahlil etilgan holda tizimli choralar ko'rib borilyapti.

Ishonch telefoni, turli murojaatlar va shikoyatlar uchun fikr bildirish qutisi, xodimlar va bemorlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish, videokuzatuv moslamalarini o'rnatish kabi qator choralarning ko'rilayotganligi ham sohada korrupsiya va turli salbiy illatlarga chek qo'yilishiga xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tizimdagi tibbiyot muassasalaridagi vaziyatni nazorat qilib borish, korrupsiyaning oldini olish, ta'magirlik

holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida aniq vazifalar belgilab berilgan. Har bir tibbiyot xodimi sohada korrupsiyaga yo'l qo'yilmasligi uchun tibbiy xizmatning sifatli ta'minlanishiga e'tibor berishi lozim.

Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sog'liqni saqlash sohasini shaffof tizimga aylantirish, shifokorlarning halol, pok ishlashlari uchun tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, tizimda hamon poraxo'rlik va ta'magirlik holatlari uchrayotgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan, prezident ushbu salbiy illatga barham berish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi zimmasiga tegishli vazifalar yuklatildi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

2017 yil 3 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunni imzoladi va qonun 2017 yil 4 yanvardan kuchga kirdi.

Korrupsiyaviy daromad—harom daromad bo'lib, bu daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi va kuchaytiradi. Korrupsiyaning milliy xavfsizlikka xatari shundaki, u kishilarda norozilik uyg'otib,



jamiyatdagi intizomiy muvozanatga tahdid soladi. Shuningdek, korrupsiya daromadlarning poraxo'rlar qo'lida to'planishiga olib keladi.

Natijada, o'z sohibi ishlab topgan daromadning poraga aylangan qismi yashirin tarzda jamg'ariladi. Poraxo'r qo'lida jamg'arilgan pul investisiyaga ham xizmat qilmaydi. Eng yomoni bu aholi qo'lidagi pul qoldig'ini ko'paytiradi hamda pul muomalasiga yoxud mamlakat monetar xavfsizligiga raxna soladi.

Korrupsiyaga qarshi ma'rifat -insonda bilim, "immunitet", shuningdek korrupsiyaga qarshi oliy maqsadga mos keluvchi barqaror xulq-atvor me'yorlarida o'z aksini topgan tegishli ma'naviy-axloqiy ehtiyojlar, insof, iymon-e'tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining maqsadi - korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq tahdidlardan himoyalanihini ta'minlashdan iborat. Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan, qabul qilingan turli qonunlari, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi.

davlat sherigi — O'zbekiston Respublikasi va (yoki) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan boshqa yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari;

konsessiya — davlat-xususiy sheriklikning shakllaridan biri bo'lib, bunda davlat xususiy sherikka konsessiya shartnomasida nazarda tutilgan xo'jalik faoliyatining muayyan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma bergan holda mol-mulkni va yer uchastkalarini taqdim etadi;

talabgor — davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan va tenderda ishtirok etishdan manfaatdor bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi;

xususiy sherik — O'zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan, davlat sherigi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni.
- 2.Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-2017 y.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T, 2017.
- 4.Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi-2008 y.
- 5.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidag kodeksi-2014 y.
- 6.S.Abdurasulova, O.Qurbonov. Korrupsiya: asosiy tushuncha va shakllari (risola)-2009 y.